

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan
“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da Respublika davlat
dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risida
MA’LUMOT
(2025-yil III choragida)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Respublika davlat dasturida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan 4 ta band o‘rin olgan. Unga ko‘ra, 202-yilning o‘tgan 1-choragida:

1. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 6-bandida ko‘zda tutilgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda Mahalliyashtirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish” yo‘nalishida hisobot davrida 1111,9 milliard so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, topshiriq ijrosi belgilangan rejaga nisbatan 101,8 foizga (o‘tgan yilga nisbatan 158,9 foiz) bajarildi.

2. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 8-bandida ko‘zda tutilgan “Yirik korxonalar tomonidan ESG hisobotlarini yuritish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda jamoatchilikka oshkor qilish” yo‘nalishida hisobot davrida Barqaror rivojlanish (ESG) bo‘yicha hisobot tayyorlandi va korporativ saytda yoritildi.

Hisobot dizaynini tayyorlash va mustaqil verifikatsiyadan o‘tkazish belgilangan muddatlarda yakunlanadi.

3. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 12-bandida ko‘zda tutilgan “Muruntov” konini o‘zlashtirishning investitsiya loyihasining navbatdagi bosqichlarini amalga oshirish” yo‘nalishida hisobot davrida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan ushbu loyiha-ning texnik-iqtisodiy asosi (TIA) ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-noyabrdagi 907-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Jumladan, “Muruntov” konining shimoliy tomondagi (3-KL) “Shimoliy – Sharqiy” maydalash yuklash punktini DPP chuqurlashtirish” loyiha-smeta hujjatlar doirasida kurilish-montaj ishlari yakunlandi va ob‘ekt foydalanishga topshirildi. Shuningdek, loyiha doirasida yuritgichlar, elektrodvigatellar, reduktorlar, uskunalar yetkazib berildi. Bundan tashqari, bir dona “WK-20” rusumli elektr ekskavatori 20 kubmetr va bir dona kichik hajmli yuklagich yetkazib berildi.

“Janub-tog‘ jinsi SPT majmuasi qurilishi” loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan va shaharsozlik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingan. Uskuna va jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar rasmiylashtirilmoqda. Ayni paytda konveyer konstruksiyalarini o‘rnatish ishlari hamda maydalash va yuklash punkti jixoz osti fundamentlarini quyish ishlari olib borilmoqda. Qurilmani tayyorlash ishlari Navoiy mashinasozlik zavodi tomonidan olib borilmoqda. Joriy yilning yanvar-sentabr holatiga 22,2 mln. AQSh dollari miqdoridagi kapital mablag‘lar o‘zlashtirish kutilmoqda. Shundan, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish 3,45 mln. AQSh dollarni, asbob-uskunalar xarid qilish 15,8 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

4. Respublika davlat dasturining 16-ilovasi 28-bandida ko‘zda tutilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirishga qaratilgan strategiyani amalga oshirish” yo‘nalishida hisobot davrida atmosfera havosini ustivor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish bo‘yicha 2 ta avtomatik stansiya

hamda chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatish va eskilarni almashtirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Atmosfera xavosini ustivor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va taxlil qilish boʻyicha 2 ta avtomatik stansiyalarni oʻrnatish xamda chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatish va eskilarni almashtirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu bilan birga, avtomatik stansiyalarni xarid qilish uchun Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi bilan texnik topshiriq ishlab chiqishi uchun 2023-yil 10-avgustda 1810847-sonli shartnoma 2023-yil 25-dekabr 2286882-sonli shartnoma 2023-yil 25-dekabrda 2286884-sonli shartnoma 2023-yil 20-sentabrda 1936628-sonli shartnomalar imzolandi. 7-gidrometallurgiya zavodining 12,13,14-sonli ifloslantiruvchi manbalariga - 3 dona “SBU” rusumli chang-gaz tozalash uskunasi oʻrnatildi .

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Atrof-muhit muhofazasi boʻlimi.